



Tasdiqlayman  
Transport nazorati inspeksiyasi  
boshlig'i  
J.A.Karimov  
2024-yil 4-mart

## O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasi yig'ilish

### BAYONI

Toshkent shahri

18-son

2024-yil 4-mart

Raislik qildi:

J.Karimov – Transport nazorati inspeksiyasi boshlig'i  
Boshliq o'rinnbosarlari, boshqarma va bo'lim boshliqlari,  
tarkibiy bo'linma mas'ul xodimlari (ro'yxat bo'yicha)

Qatnashdilar:

#### KUN TARTIBI:

1. Transport nazorati inspeksiyasida 2024-yil fevral oyi davomida amalga oshirilgan ishlар sarhisobi haqida.

2. Transport nazorati inspeksiyasida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar hamda ijro intizomi holati to'g'risida.

(Karimov, Satarov, Abduraxmonov, Maxmuadov, Toshiev, Nurmamatov, Kenjaeva, Azizov, Xayriddinov, Axrarova, Raxulov, ..., Karimov)

Transport nazorati inspeksiyasi boshlig'i J.Karimov so'zga chiqib, joriy yilning fevral oyi davomida avtomobil, suv va temir yo'l transportida hamda yo'l qurilish ishlарida amalga oshirilgan nazorat tadbirlari natijalari, erishilgan ko'rsatkichlar va yo'l qo'yilgan kamchiliklar haqida yig'ilish qatnashchilariga ma'lumot berdi.

Shu bilan birga:

fevral oyi davomida belgilangan ko'rsatkichga erishish uchun yetarli ishlар amalga oshirilmaganligi holati bo'yicha to'xtalib o'tib, Avtomobil transportida nazorat Andijon viloyati hududiy bo'limi boshlig'i F.S.Yuldashev, Sirdaryo viloyati hududiy bo'lim boshlig'i Sh.N.Tuychiev va Toshkent shahar hududiy bo'limi boshlig'i D.S.Xudaykulovlarni;

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-dekabrdagi 668-son qarori 1-ilova 2-bobida belgilangan vazifalari hamda funksiyalar ijrosi yuzasidan yetarli ishlар amalga oshirilmayotganligi yuzasidan tanqid ostiga oldi.

Avtomobil transportida nazorat Qashqadaryo viloyati hududiy bo'limi faoliyati tekshirilganida, bir qancha kamchiliklar aniqlanganligi, bo'lim boshlig'i J.A.Toshturdiev o'z xizmat vazifalariga mas'uliyatsizlik bilan yondoshib kelayotganligi, berilayotgan topshiriqlar bo'yicha yetarli ishlар amalga oshirilmayotganligini alohida ta'kidlab, tanqid ostiga oldi.

Temir yo'l transporti va metropolitenda nazorati, Yo'l-qurilish ishlарini nazorat qilish boshqarmalari va Suv transporti nazorati bo'limi tomonidan amalga oshirilgan ishlarni qoniqarsiz deb baholadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini, Administratsiya rahbari va Hukumat tomonidan qabul qilingan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijsro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda ««Ijro.gov.uz» ijsro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son Qarori bilan belgilangan tartibda so‘zsiz bajarilishi lozimligini ta‘kidlab o‘tdi.

Shuningdek, belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish har bir mas’ul xodimning ustuvor vazifasi ekanligi, kamchilikka yo‘l qo‘yayotgan mas’ul xodimlarga qat’iy choralar ko‘rilishi hamda har bir bajarilmagan topshiriqqa yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan holat va jiddiy masala sifatida qaralishi lozimligi haqida gapirib otdi.

2024-yil davomida normativ-huquqiy hujjatlар va topshiriqlar ijrosi haqida quyidagilar ma’lum qilindi.

«edo.ijro.uz» ijsro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi (ijsro intizomi respublika kartotekasi) orqali bugungi kun holatiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **15 ta Farmon, 17 ta qarori va 2 ta bayoni (jami 34 ta hujjat)** kelib tushgan bo‘lib, mazkur hujjatlarda jami **69 ta** topshiriqlar belgilangan.

Bugungi kunda jami **64 ta** topshiriqlarning ijrosi ta‘minlanib, o‘rnatilgan tartibda Adliya vazirligi, Vazirlar Mahkamasi va Hisob palatasi oldida himoyasi ta‘minlandi. (*Bajarilmagan topshiriqlar mavjud emas*)

Transport nazorati inspeksiyasi ijrochiligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 16 iyundagi PF-6247-son va 2024 yil 21 fevraldagi PF-37-son Farmonlarida belgilangan **2 ta** topshiriq hamda 2022 yil 25 oktyabrdagi PQ-408-son va 2023 yil 11 iyuldaggi PQ-222-son Qarorlarida belgilangan **2 ta** topshiriq, shuningdek, 2022 yil 4 avgustdagii 61-son bayonida belgilangan **1 ta** topshiriq (**jami 5 ta topshiriq**) ish jarayonida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-iyundagi PF-94-son Farmoni qabul qilinishi munosabati bilan, soha faoliyatiga aloqador amaldagi barcha normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o‘tkazish va tegishli o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish zarurligi, shu bilan birga, ijroda bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlardagi topshiriqlarning muhokamasiga berilmay, balki ularning ijrosiga jiddiy ahamiyat qaratish lozimligi, shuningdek, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar loyihibarini har tomonlama puxta hamda yuksak professional darajada tayyorlash kerakligi haqida alohida ta‘kidlab o‘tdi.

Shu bilan birga, joriy yil boshidan shu kunga qadar yuqori turuvchi organlar, vazirlik va idoralardan jami **513 ta** topshiriqlar kelib tushgan bo‘lib, shundan bugungi kunda 436 tasi bajarildi, 77 tasi ish jarayonida, shuningdek, Transport nazorati inspeksiyasining jami **237 ta** ichki topshiriqlari nazoratga olingan bo‘lib, shundan bugungi kunda 90 tasi bajarildi, 147 tasi ish jarayonida.

Kun tartibidagi masalalar atroficha muhokama qilinib, yig‘ilish **qaror qiladi**:

1. Kun tartibidagi masalalar yuzasidan yig‘ilishda mas’ul xodimlar tomonidan berilgan hisobotlar ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Boshqarmalar va hududiy bo‘limlar tomonidan fevral oyi yakuni bo‘yicha erishilgan ko‘rsatkichlari **QONIQARSIZ deb hisoblansin** hamda mart oyi davomida belgilangan ko‘rsatkichlarni ijobiy holatga keltirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilsin.

3. **Boshliq o‘rnbosari (S.Sattarov) Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (Sh.Ro‘zmetova)** Avtomobil transportida nazorati Qashqadaryo viloyati hududiy bo‘limi boshlig‘i J.A.Toshturdiyevga nisbatan “**Xayfsan**” intizomiy jazosi qo‘llanilsin va 1 chorak yakunida xizmat vazifalarining bajarilishi hamda ish ko‘rsatkichlarining natijasiga qarab egallab turgan lavozimda qolish yoki qolmasligiga **baho berilsin**.

4. Avtomobil transportida nazorati Andijon viloyati hududiy bo‘limi boshlig‘i F.S.Yuldashev, Sirdaryo viloyati hududiy bo‘lim boshlig‘i Sh.N.Tuychiyev va Toshkent shahar hududiy bo‘limi boshlig‘i D.S.Xudaykulovlar tomonidan fevral oyi davomida belgilangan ko‘rsatkichlarga erishilmaganligi, xavfni tahlil etish ishlari olib borilmaganligi va bu borada nazorat tadbirlari bo‘yicha etarli ishlar amalga oshirilmaganligi ko‘rsatib o‘tilsin hamda mazkur holat kelgusida takrorlangan taqdirda intizomiy ta’sir choralari qo‘llanilishi haqida **qat’iy ogohlantirilsin**.

5. **Boshliq o‘rnbosari (S.Sattarov) 2024-yil 1-aprelga qadar**, Avtomobil transportida nazorati Andijon viloyati hududiy bo‘limi boshlig‘i F.S.Yuldashev, Sirdaryo viloyati hududiy bo‘lim boshlig‘i Sh.N.Tuychiyev va Toshkent shahar hududiy bo‘limi boshlig‘i D.S.Xudaykulovlar Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-dekabrdagi 668-son qarori 1-ilova 2-bobida belgilangan vazifalari hamda funksiyalarni bajarilishida yuqori ko‘rsatkichlarga erishmagan taqdirda xizmat lavozimida qolish yoki qolmaslik bo‘yicha **taklif kirtsin**.

**6. Boshliq o‘rnbosari (S.Sattarov) nazorat olinsin:**

- **Avtomobil transportida nazorati Toshkent shahar hududiy bo‘limi (D.S.Xudaykulov)** “Toshshahartransxizmat” AJga qarashli avtobus parklarini xavfni tahlil etish tizimini qo‘llash orqali belgilangan tartibda tekshirilsin;

- aniqlangan kamchiliklar va yuzaga kelayotgan muammolar bo‘yicha axborot berilsin.

- **Avtomobil transportida nazorati Toshkent viloyati hududiy bo‘limi (A.A.Nurov)** Toshkent viloyati Olmaliq shahrida yo‘lovchi tashish faoliyati bilan shug‘ullanib kelayotgan “Damas” rusumli transport vositalari ishtirokida yo‘l transport hodisalari ko‘payib ketganligi va arizalar kelib tushayotganligi inobatga olib, ushbu hududda muntazam reyd tadbirlarini o‘tkazish kuchaytirilsin.

- **Avtomobil transportida nazorati Farg‘ona viloyati hududiy bo‘limi (J.Sh.Xakimov)** Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumanida yo‘lovchi tashish faoliyati bilan shug‘ullanib kelayotgan “Damas” rusumli transport vositalari ishtirokida yo‘l transport hodisalari ko‘payib ketganligi va arizalar kelib tushayotganligi inobatga olib, ushbu hududda muntazam reyd tadbirlarini o‘tkazish kuchaytirilsin.

**7. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (Sh.Ro‘zmetova) Moliya-iqtisod bo‘limi (F.I.Aymatov)** Inspeksiya boshlig‘ining 2024 yil 11

fevraldag'i 01/02-3-sonli ko'rsatma talablarini to'liq va sifatlari bajarmaganligi sababli, Suv transportida nazorat bo'limi etakchi mutaxassis Sh.G'.G'aniyev 2024 yil 1 chorak mart oyi yakuni bo'yicha qo'shimcha rag'batlantirish maoshidan 50 % mahrum etilsin.

**8. Temir yo'l transportida nazorat boshqarmasi (A.Abduraxmanov) va uning hududiy bo'linmalari joriy yilning:**

**13 mart kuniga qadar** 2024 yil boshidan amalga oshirilib kelinayotgan profilaktik tadbirlar bo'yicha prezintatsiya tayyorlab **axborot bersin;**

**15 mart kuniga qadar** avariya holatlari muntazam sodir etilayotgan joylar aniqlansin va oldini olish bo'yicha **taklif kiritsin;**

**28 mart kuniga qadar** xavfni tahlil etish tizimini qo'llash orqali belgilangan tartibda o'tkazilayotgan tekshiruvlarda aniqlangan kamchiliklarni fotoalbum va prezintatsiya tayyorlab **axborot bersin.**

**9. Yo'l qurilish ishlarini nazorat qilish boshqarmasi (J.Maxmudov)** Qoraqolpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatlarida o'tkazilayotgan tekshiruv natijalari bo'yicha xodimlarning lavozimda qoldirish yoki qoldirmaslik yuzasidan **taklif kiritsin.**

**10. Boshliq o'rribosarlari, boshqarma va bo'lim boshliqlari (va ularning o'rribosarlari), mas'ul xodimlari:**

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-dekabrdagi 668-son qarori 1-ilova 2-bobida belgilangan vazifalari hamda funksiyalarning barcha bandlari bajarilishi ta'minlasin;

tizimli ravishda Nazorat rejasida belgilangan tegishli topshiriqlarni oylik shaxsiy ish rejalariga kiritgan holda ularning ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma'lumotlarni (*asoslovchi hujjatlarni ilova qilgan holda*) har haftaning dushanba va juma kunlari rahbar huzurida muhokama qilish maqsadida Axborot-tahlil va ijro nazorati bo'limiga kiritib borsin;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentini, Administratsiya va Hukumat tomonidan qabul qilingan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari ijrosi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldag'i PF-6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydag'i PQ-5132-son Qarori bilan belgilangan tartibga binoan bajarilishi ta'minlasin.

**11. Temir yo'l transportida nazorat boshqarmasi (A.Abduraxmanov)**  
**29 mart kuniga qadar** 2024-yil 29 fevral Sirdaryo viloyati Yangier stansiyasining "Yangier JBI" shoxobcha yo'lida vagonlar o'z-o'zidan ketib qolib, «vystavochnyy» yo'lining prizmasiga kelib to'qnashgan hodisasi yuzasidan **xizmat tekshiruvi o'tkazib, axborot bersin.**

**12. Axborot-tahlil va ijro intizomi bo'limi boshlig'i D.Axunjanov Transport nazorati inspeksiyasida mas'ul xodimlar tomonidan «edo.ijro.uz» («ijro.gov.uz») ijro intizomi idoralalararo yagona elektron tizimida ijro intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat ishlarini olib borilishni davom ettirsin.**

Bayonni yozdi



M.Xaytmetov